

Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish yuzasidan
Sh A R T N O M A № K-22

2022-yil 29-avgust

Farg'ona shahri

Ushbu shartnoma bir tomondan Fargona shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan bo'lim mudiri N.A.Irgasheva vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" va ikkinchi tomondan

Kapital Tamir Sifat nomidan rahbar Botirov.A.B.vakilligida kelgusida "Pudratchi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti.

1.1. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga asosan Fargona shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 35-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2. Shartnoma bahosi.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami 134 677 549 (Bir yuz o'ttiz to'rt million olti yuz etmish etti ming besh yuz qirq to'qqiz) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda "Buyurtmachi" va "Pudratchi"ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. Hisob-kitob qilish tartibi.

3.1. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun "Buyurtmachi" pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. "Buyurtmachi" oldindan shartnoma umumiy summasini 30 foiz miqdorida **40403265** (qirq million to'rt yuz uch ming ikki yuz oltmish besh) so'm avans to'lovini "Pudratchi" hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan holda amalga oshiriladi.

4. Ishlarni bajarish tartibi va muddatlari.

4.1. "Buyurtmachi" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab _____ kun muddat ichida "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari yakunlanishi shart.

4.2. "Pudratchi" bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. "Pudratchi" ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

5.1. "Pudratchi" mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlar "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi.

5.2. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda "Pudratchi"dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarini olib borishni talab qilishga haqli.

5.3. "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarini belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, "Buyurtmachi" tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida "Pudratchi"ga xabar yuboriladi. "Pudratchi" tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarada tutilgan choralarda amalga oshiriladi.

6. Tomonlarning javobgarligi.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar "Pudratchi" tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, "Pudratchi" bajarilmagan ishlar qiymatining 0.5 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun "Buyurtmachi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishning qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlari yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingan holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0,4 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun "Pudratchi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. Fors-major holatlari.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat hodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmaz kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar.

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida tassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar

nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9. Qo'shimcha shartlar.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa "Buyurtmachi" joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, hududiy g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

10. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

"Pudratchi"	"Buyurtmachi"
Kapital TamirSifat Manzil: Farg'ona shahar Tel./Faks: +998 971241505 H/r: 20208000505381514001 Bank: "ASIA ALLIANCE BANK" ATB Farg'ona shahar bo'limi MFO: 01173 STIR: 308431613 IFUT(okonx): _____	Fargona sh. Maktabgacha ta'lim bo'limi Manzil: Farg'ona shahar, Nurafshon k., 15-uy Tel./faks: (73) 244-91-88 Sh.h/r: 100022860304017091100251065 STIR: 305 153 264, IFUT(okonx): 85100 Farg'ona shahar G'aznachilik bo'linmasi H/r: 23 402 000 300 100 001 010 Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi hisob-kitob kassa markazi (HKKM) MFO-00014 G'aznachilik bo'limi 201 122 919
Korxonalarahbari  Botirov.A.B.	Bo'lim mudiri  .A.Irgasheva

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA
HUQUQIY XULOSA
№ GM4371874300**

1. Loyiyaning turi: Shartnoma № K-22.

2. Loyiyaning nomi: Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish yuzasidan shartnoma № K-22.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shartnoma loyihasi Farg'ona shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi va Kapital tamir sifat o'rtasida 2022-yil 18-avgust kuni ishlab chiqilgan. Xato va kamchiliklar bartaraf etilgan holda 2022-yil 18-avgust kuni qaytadan "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif:

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib:

Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunchilikka mos holda tuzilganligi;

tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

X U L O S A:

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



X.Soburov

19.08.2022



«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Фарғона шаҳар Мактабгача
таълим бўлими мудири

Handwritten signature in blue ink.

29.08.2022 йил

Фарғона шаҳри

**Фарғона шаҳар 35-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш учун 22110012135569-сонли лот бўйича эълоннинг 18.08.2022 йил кунги электрон баённомаси муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси
БАЁННОМА ХУЛОСАСИ**

1. Фарғона шаҳар 35-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш учун маҳаллий бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби ва харажатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Фарғона шаҳар 35-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш мақсадида амалга оширилиши лозим бўлган ишлар юзасидан 18.08.2022 йил кунги қабул қилинган танлов комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларини баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “**Давлат харидлари тўғрисида**”ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандларига асосан etender.uzex.uz махсус ахборот порталидаги 18.08.2022 йил кунги тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада қолиб деб топилган Kapital Tamir Sifat билан белгиланган тартибда 134 677 549 (Бир юз ўттиз тўрт миллион олти юз етмиш етти минг беш юз қирқ тўққиз) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

Х.Ақбаров

Ш.Абдулазизов

А.Хомедов

Н.Худоёрова

Handwritten signatures in blue ink corresponding to the names listed on the left.

Қотиба:

Н.Каримбердиева